

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA MEHNATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Allaberganova Shoxista Zokir qizi

UrDu Magistratura bo'limi 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869794>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini kattalar mehnati bilan tanishtirish, bolalarda yoshlikdan kattalar mehnatiga munosabatni shakllantirish haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Mehnat tarbiyasi, kattalar mehnati, maktabgacha ta'lim, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi", "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun.

Har tomonlama rivojlangan shaxsning majburiy sifati bu katta mehnatkashlikdir. Maktabgacha ta'lim tarbiyachining ishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolani mehnatga tayyorlash bu uning psixologik tayyorgarligini shakllantirishdir. Psixologik tayyorlik - bu har qanday ishlab chiqarish turini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun etarli bo'lgan shaxsning rivojlanish darajasi.

Mehnat tarbiyasi –bolalarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek muayyan ijtimoiy foydali harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi:

- Bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, shuningdek mehnat orqali bolani har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy –axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularda mehnat qilish xohishini singdirish ham alohida ahamiyatga ega.

Mehnat tarbiyasining vazifalari:

- Yosh avlodda mehnat tarbiyasini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning tirli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash
- Tarbiyalanuvchilarda mehnat istagini jamiyat manfaatlari yo'lida mehnat qilishga ehtiyojni hosil qilish .

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- Har bir kishi mehnatining ijtimoiy mohiyati.
- Mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy munosabat
- Har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish
- Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish
- Mehnatning maqsadi uning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish
- Mehnat materiallarini tanlashga o'rgatish
- Jihozlash ya'ni mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblarni tayyorlash
- Bolalarning o'zlarini mehnatga o'rgatish esa har bir inson uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishda maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi mehnat turlariga jalb qilinadi:

- O'z o'ziga xizmat qilish – bolalar mehnatining har bir turi bo'lib unda bolalar ilk yoshdan boshlab mustaqil ovqatlanish, yuvinish, kiyinish, o'yinchoqlarni yig'ishtirib quyishga

o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi.

Tabiatdagi mehnat. Bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to'g'risidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni tabiatga ehtiyotkorona munosabatlarni tarbiyalashda muhim sanaladi. Mehnat qurollari bilan tanishtirish ham tabiatdagi mehnat bilan bog'liq tarzda olib boriladi.

Xo'jalik maishiy mehnat. Bolalar bog'chasida va oilada olib boriladi. Uning mazmuni har xil bo'ladi: Xona va bog'cha maydonchasini yig'ishtirish, choy idishlarni, idish tovoqlarni yig'ishtirish, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotlarga kerakli materialarni tayyorlab quyish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib quyish.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda o'qituvchilar, qoida tariqasida, vizual usullardan foydalanadilar, ularni og'zaki (hikoyalar, suhbatlar) bilan mohirona birlashtiradilar; katta bolalar bilan ishlashda ularning ulushi ko'payishi mumkin. Og'zaki uslublar orasida bolalar badiiy adabiyotidan foydalanish alohida o'rin tutadi.

Ta'lim nuqtai nazaridan eng qadrli va bolalar tushunishi mumkin bo'lgan, ularni kattalarning mehnat xatti-harakatlariga taqlid qilish istagini uyg'otadigan mehnat tarkibini kuzatish uchun tanlash juda muhimdir. Taassurotlar takrorlanishi kerak, shuning uchun mehnat mazmuni bir qator sinflarga taqsimlanishi kerak, ularning har birida mahorat bilan dozalangan, asta-sekin o'sib borishi va chuqurlashishi kerak.

Mehnat tarbiyasiga kattalar mehnati bilan tanishtirishga yangicha yondashish bolalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o'zgarmoqda, u o'zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hanlida holatlarni ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasida kattalar mehnati bilan tanishtirishning maqsadi mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish va kasb-hunarlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish hamda qiziqishlarini uyg'otishdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasi orqali bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishning vazifalari quyidagicha:

1. Kattalar mehnatning mohiyatini anglatish orqali bolalarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;
3. Mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;
4. Bolalarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;
5. Kattalar mehnati bilan tanishish orqali mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;
6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

9. Bolalarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; kattalar mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirishga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

Bolalar ta'lim jarayonida va mashg'ulotlardan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida bolalarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati — bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana bolaning mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Kattalar mehnati orqali mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi bolalarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

Mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va mehnat qilishga odatlantirishda atrofdagi kattalarning ular mehnatiga bevosita dahldor bo'lgan jonli namuna bo'lishliklari muhim ahamiyatga ega. Ammo bolalarda mehnatga psixologik tayyorgarlikni faqat mehnat faoliyati jarayonidagina tarbiyalash mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kattalar maishiy mehnatini unumliroq tashkil etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Uning ijtimoiy xarakteri bu mehnatda yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun ham bolalarning kattalar xulq-atvoriga oid hayotiy misollardan foydalana oladigan sharoitlarni yaratish zarur.

Bunda turli yo'llardan foydalanish mumkin. Birinchi yo'l – bu kattalarning xilma-xil mehnatini ko'rsatish hamda ularning ahamiyatini tushuntirish; ikkinchi yo'l - bu kattalar va bolalar mehnatini bevosita birgalikda tashkil etishdir.

Bollarni kattalar mehnati bilan tanishtirish o'z oldiga ularga mehnat haqida konkret bilim, tasavvur berish hamda kattalar mehnatiga hurmat bilan qarash, uning qadriga etish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'yadi.

Ayni vaqtning o'zida bolalar xulq-atvorida mehnat qilish, vijdonan, chidam bilan ishlash istagini uyg'otishga ta'sir ko'rsatish vazifasi ham hal etiladi.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir. Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, shuning uchun ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi (V. I. Loginova):

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

1. Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat malakalari, ko'nikmalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.
2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.
3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1. Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.
2. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.
3. Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bo'la-shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

1. Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.
2. Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat'iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matонатlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
3. Madaniy xulq va o'z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o'zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o'z mehnati bilan qatnashish, o'zi va o'rtog'larining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 25-yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasidagi nutqidan
2. "Ilk qadam" o'quv dasturi 2018-yil 7-iyul
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni.16-dekabr,2019-yil.
4. F.R.Qodirova, R.M.Qodirova. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi.-T., "Fan va texnologiya". 2011.Ф. P.
5. Maktabgacha ta'lim tizimiga doir huquqiy- meyoriy hujjatlar to'plami.-T.,«LIDER PRESS», 2009.